

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUSANOV MURODJON SUNNATULLAYEVICH

MILLIY IQTISODIYOTDA XIZMATLAR SOHASINING TUTGAN
O‘RNINI MAKROIQTISODIY TADQIQ QILISH

08.00.02 — “Makroiqtisodiyot”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

| | |
|--|----|
| Xusanov Murodjon Sunnatullayevich Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining tutgan o'rnini makroiqtisodiy tadqiq qilish..... | 5 |
| Хусанов Муроджон Суннатуллаевич Макроэкономическое исследование роли сферы услуг в национальной экономике..... | 33 |
| Khusanov Murodjon Sunnatullaevich Macroeconomic study of the role of the service sector in the national economy..... | 63 |
| E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works..... | 69 |

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUSANOV MURODJON SUNNATULLAYEVICH

**MILLIY IQTISODIYOTDA XIZMATLAR SOHASINING TUTGAN
O‘RNINI MAKROIQTISODIY TADQIQ QILISH**

08.00.02 — “Makroiqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/Iqt563 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tstu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begalov Bahodir Abdusalomovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedieva Aliya Toxtarovna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xashimov Pazliddin Zukurovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiyot fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ kuni soat __:__ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: [+998 71 239-28-66](tel:+998712392866); [+998 71 239-01-49](tel:+998712390149); [+998 71 239-28-09](tel:+998712392809); e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: [+998 71 239-28-66](tel:+998712392866); [+998 71 239-01-49](tel:+998712390149); [+998 71 239-28-09](tel:+998712392809).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv, doimiy o'zgarish va transformatsiya jarayonlari kechayotgan zamonaviy dunyoda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayveri bo'lib, yalpi ichki mahsulotni shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Jahon bankining 2022-yil hisobotiga ko'ra, "dunyo bo'yicha xizmatlarda qo'shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 62,6 %ga, bandlikdagi o'rnini (jami band bo'lganlardagi ulushi) esa 49,7 %ga baholanmoqda"¹. Shu munosabat bilan, ayniqsa, zamonaviy davrni ifodalovchi jadal o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini o'rganishning dolzarbligi bugungi kun haqiqatidir. Bundan tashqari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, kundalik hayotimizga raqamli texnologiyalarning izchil kirib kelishi, iste'molchilarning ehtiyojlari va qarashlarining o'zgarishi – bularning barchasi xizmat ko'rsatish sohasi oldiga yangi imkoniyatlar va vazifalarni qo'yimoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylanib, tadqiqotchilar, iqtisodchilar va amaliyotchilarning e'tiborini tortmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining tutgan o'rnini makroiqtisodiy tadqiq qilish borasida keng doiradagi izlanishlar olib borilmoqda. Xizmatlar sohasini tasniflash, toifalash va tarkibini tartiblash, xizmatlarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, YaIMdagi ulushini aniqlash va uning iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini baholash, xizmatlar sohasining xalqaro savdodagi o'rnini tadqiq etish, xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarni va raqamlashtirish jarayonlarini, ishchi kuchi talabini va ushbu sektordagi bandlik darajasini tahlil qilish, xizmatlar sektorini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va qonunchilik tashabbuslarining samaradorligini, xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik darajasini baholash bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ham milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining o'rnini va ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Alohida ta'kidlash joizki, jahondagi rivojlangan davlatlarda YaIMdagi xizmatlar sohasining salmog'i 65 %-80 % tashkil etayotgan bir paytda, O'zbekiston Respublikasining YaIMda xizmatlar sohasining ulushi, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023-yil yakunlari bo'yicha 41,6 %ni tashkil etadi. Shu bois, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida (34-maqсад) ham "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish"² masalasi alohida vazifa sifatida belgilangan. Bularning

¹ Jahon banki hisoboti: World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery // <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2022>

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

barchasi kelgusida xizmatlar sohasini iqtisodiy taraqqiyotning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilab beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarda Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2021-yil 30-sentabrdagi PF–6318-son “Xizmatlar sohasini qoʻllab-quvvatlashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2022-yil 27-yanvardagi PQ–104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2021-yil 16-iyundagi PQ–4752-son “Xizmatlar sohasini qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2021-yil 11-maydagi PQ–5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda xizmatlar sohasi rivojiga taalluqli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Xizmatlar sohasi boʻyicha koʻplab xorijiy va milliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, tovar va xizmatlar bozorining oʻziga xos xususiyatlari va dastlabki qirralari A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey, R. Cheyz, D.Tomas, F.Kotler, R.Sheyn, G.Sempen, A.Snayp va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan oʻrganilgan³.

Bundan tashqari, R.Djadd, L.Shostak, E.Sesser, A.Olsen, D.Vikof, T.Xill, I.Adizes, M.M.Gamburg, Z.I.Belikina, D.Bell, T.D.Burmenko, K.Lavlok, S.V.Chepel, Yu.V.Voronovskiy, Ye.A.Razomasova, O.N.Balayeva, L.Demidova, B.A. Rayzberg, V.D.Markova, G.A.Axtamova, Dj. Li, R.I.Xikmatov kabi va boshqa koʻplab olimlarning xizmatlar sohasining iqtisodiy-statistik tahlili boʻyicha yondashuvlariga eʼtibor qaratish joiz⁴.

³ Адам Смит. Исследования о природе и причинах богатства народов в 3-х тт. Т.1. с примечаниями Бентама, Бланки, Буханана, Гарнье, Мак-Кулоха, Мальтуса, Милля, Рикардо, Сэя, Сисмонди и Тюрго. Перевел П. А. Бибииков. СПб. тип-фия И. И. Глазунова 1866 г. 496 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо; [пер. с англ.; предисловие. П.Н. Клюкина]. — М.: Эксмо, 2008. — 960 с. — (Антология экономической мысли); Сэй Ж.Б. О торговом балансе. СПб., 1816.; Chase R.V. Where Does the Customer Fit in a Services Operation// Harvard Business Review. November, 1978. - P. 139.; Thomas D.R.E. Strategy is Different in Service Business// Harvard Business Review., July-August 1978., - P. 160.; Котлер Ф., Боуэн Дж. Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм// Юнити, М., 2005.; Шейн Р.А. и др. Цифровая экономика как новая парадигма экономического развития // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. — 2017. — Т. 13. — №10. — С. 1788-1804.; Йорданова—Батыру В.Г. Повышение конкурентоспособности услуг как путь расширения экспортного потенциала России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, 2005.

⁴ Sasser W.Earl, Jr Paul Olsen, D. Daryl Wyckoff Management of Service Operations Text and Cases//Boston: Allyn and Bacon, 1978-368 p.; Shostack G.L. Breaking Free from Journal of Marketing, 1977, Vol. 41, April. - P.27.; Hill T. On goods and services//Rev. Of income and wealth - W. 1977 - Ser. 23 №4-P. 315-338.; Адизес, И. Управление жизненным циклом корпораций. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2021 г. С.149.; Гамбург М.М. Управление развитием сферы услуг волонтерского туризма на основе образовательной деятельности: Дисс. к.э.н. — М., 2021. С.128.; Беликина З.И. Сфера услуг и качество жизни: территориальный аспект: монография / З.И. Белкина, Н.Ю. Стоюшко. — Владивосток: Изд-во ДВГТУ, 2009. — 120 с.; Bell D. Some strategy implications of a matrix approach to the classification of marketing goods and services// Journal of the Academy of Marketing Science, Vol. 14, pp/ 13-20.; Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т.А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. — М.:

V.E.Gordin, M.D.Sushinskaya, D.A.Kuzankin, Dj.Charch, R.Vare, J.Kardoso, B.P.Bosvort, R.B.Cheys tomonidan xizmatlar sohasining rivojlanib borishida aholi turmush darajasini ham oshirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan⁵.

Iqtisodiy modellashtirish va prognozlash masalalari bo'yicha bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, ular ichida A.N.Kolmogorov, N.Viner, I.K.Shannon, amerikalik olimlar Boks, Jenkins va boshqalarning ishlari e'tiborga molik⁶.

Mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi rolini o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan S.S.Gulyamov, N.M.Maxmudov, Z.G.Qudratov, Sh.Shodmonov, G.Axunova, M.Q.Pardayev, Q.X.Abdurahmonov, S.K.Xudoyqulov, G.Q.Abduraxmanova, B.D.Xajiyev, D.S.Nasirxodjayeva, B.T.Salimov, D.M.Karimova, S.Djumayeva, G.B.Ernazarov kabilar katta hissa qo'shmoqdalar⁷.

КНОРУС, 2007. – 328 с.; Лавлок К. Маркетинг услуг: персонал, технология, стратегия: учебное пособие: пер. с англ. / 4-е изд. – М.: Вильямс, 2005. – 1008 с.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана. Monografiya. –Т.: IFMR, 2014.; Новоселов Ю.А. Социально-экономическое прогнозирование. Новосибирск, 2000.; Балаева О.Н., Предводителева М.Д. Управление организациями сфер услуг. Высшая школа экономики, 2013 г. С.156.; Демидова Л. Сфера услуг России: трудный путь модернизации // МЭиМО. — 2008. — № 2.; Райзберг Б.А. Современный экономический словарь. Справочная литература, ISBN: 978-5-16-009966-8, НИЦ ИНФРА-М, 2024.; Маркова В. Д. Маркетинг услуг// М., Финансы и статистика., 1996.; Ахтамова Г.А. Управление рисками в сфере услуг. М.:КноРус, 2020 г.; Lee J. Service economies. NY., 2010. P.71-78.; Хикматов Р.И. Развитие сферы услуг в современных условиях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Казань, 2006.

⁵ Гордин В.Э., Сушинская М.Д. Менеджмент в сфере услуг. М.: Бизнес-пресса, 2007. С.128.; Кузанкин Д.А. Стратегическое развитие предприятия сферы услуг: методика управления / Д.А. Кузанкин. – М., 2017. С.27.; Church, J., Ware, R. Industrial Organization: A Strategic Approach / J.Church, R.Ware. McGraw Hill 2000. P.52.; Bosworth BP, Triplett, J. The early 21stCentury US productivity expansion is still in services. International Productivity Monitor, No. 14, pp 3 – 19, Spring 2007.; Chase R.B. Where Does the Customer Fit in a Services Operation?// Harvard Business Review. November, 1978. - P. 139.

⁶ Handbook of NIST - Box-Jenkins models in the Engineering Statistics.

⁷ Гулямов С.С. Экономико-математические методы в системном анализе, Монография, 1998 й.; Махмудов Н.М. – “Бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш самарадорлигининг тахлили тизими” Т.. «Ўзбекистон», Илмий мақола, 1993 й.; Кудратов З.Г. Основные тенденции развития сферы услуг в Узбекистане // Молодой ученый. — 2016. — №11. — С. 791-793.; Шодмонов Ш ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: “Молия” 2002. - 117 б.; Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши, 2004 й.; Пардаев М.Қ ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. – 20 б.; Абдурахмонов Қ. Ўзбекистон инновацион ривожланиш йўлида / Муаллифлар жамоаси. Монография. — Т.: ОДКБ Тошкент филиали. Г. В. Плеханова, 2018 й. 136 б.; Г.Қ. Абдурахманова, С.Р. Холбаева. Экономика человеческого капитала. Ўқув қўлланма. IQTISODIYOT, 2023 йил, 184 б.; Б.Ю. Ходиев, Б.Б. Беркинов ва б. Эконометрика: учебное пособие. - Т.: IQTISODIYOT, 2018; Д.С. Насырходжаева, Проблемы развития конкурентно способности промышленных отраслей в период пандемии. Илмий тадқиқотлар архиви, 2022 йил, <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/775>; С.К. Худойқулов ва Н.Ш. Файзиева. Давлат иштирокидаги корхоналарни молиялаштиришнинг илмий-назарий асослари. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022, ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-214-222; Б.Д. Хажиев. Таксимот жараёнлари самарадорлигига таъсир қилувчи омиллар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик. “Янги Ўзбекистонда статистика назарияси ва амалиётидаги ислохотлар: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман // <https://doi.org/10.5281/zenodo.10542136>; Каримова Д.М. Государственное регулирование и прогнозирование развития сферы услуг в Узбекистане. Материалы XVII Международной научной конференции. Научно-исследовательский экономический институт Министерства Республики Беларусь, 2016. Каримова Д.М. Расширение экспортного потенциала сферы услуг: обзор мировой практики и рекомендации для Узбекистана//Рынок, деньги, кредит, №7, 2016.; Джумаева С.К. Иқтисодиётда хизматлар соҳасининг ривожланиши ва унинг диверсификациясини таъминлаш йўллари. Мақола – Иқтисодиёт ва молия журнали, 4-сон, 2016 й.; Эрнazarov Г.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасининг миллий иқтисодиётда тутган ўрни ва унинг ривожланишини статистик баҳолаш. Мақола – Иқтисодиёт ва таълим, 5-сон, 2022 й.

Masalan, Z.G.Qudratov o'z asarlarida xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga qo'shayotgan munosib hissasini asoslagan va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish zaxiralarni aniqlab bergan. D.M. Karimovanning tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va uni tartibga solish, shuningdek, barqaror rivojlanish va eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash masalalari batafsil o'rganilgan. Professor Sh.Shodmonov obyektiga ko'ra sotiladigan va sotib olinadigan tovarlar va xizmat turlarini ilmiy asoslagan.

Demak, tadqiqotlar asosan xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilish, aniq bir qo'yilgan masala yoki xizmat turining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, kompleks tarzda batafsil iqtisodiy-statistik tahlillarni amalga oshirish, ichki va tashqi omillarning ta'sirini batafsil o'rganish, zamonaviy chaqiriqlarga javob beradigan va barqaror rivojlanib boradigan xizmat turlarini aniqlash borasida yetarlicha taqdiqotlar amalga oshirilmagan. Bu esa, xizmatlar sohaning tasniflash mezonlari va xususiyatlarini qayta ko'rib chiqish, sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyati, roli va o'rnini kompleks tahlil qilish hamda rivojlanishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ta'sirini statistik baholash uslubiyotlarini yaratish, shuningdek, rivojlanish tendensiyalarini kuzatib borish uchun jarayonlarni modellashtirish va prognozlashni davrning o'zi taqozo etadi va ushbu zaruriyat dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotning xususiyatlari, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va jihatlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish sohasining makroiqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tizimli tahlil qilish va baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy iqtisodiyot va xizmatlar sohasining boshqa tarmoqlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish;

mamlakatdagi xizmatlar sohasining tuzilishi, dinamikasi va rivojlanish tendensiyalarini makroiqtisodiy tadqiq etish bo'yicha uslubiy yondashuvlarni o'rganish va takomillashtirish;

maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holatini tadqiq qilishning xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy mexanizmlarini taklif etish;

YaIMni shakllantirish va aholi bandligini ta'minlashdagi xizmatlar sohasining rolini baholash;

o'rta umr ko'rish davomiyligi va aholi jon boshiga to'g'irlangan sof milliy daromadga xizmatlar sohasi rivojlanishining ta'sirini o'rganish;

xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasining ahamiyati va o'rnini tahlil qilish imkonini beruvchi integral ko'rsatkichlarni ishlab chiqish;

O'zbekistonda xizmatlar sohasi samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o'rganish va tizimli muammolarini aniqlash;

milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar hamda o'rta va uzoq muddatlarga makroiqtisodiy prognozlashning yangi ekonometrik modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi, uning rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanib borish jarayonlarini aks ettiruvchi makroiqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy va dinamik tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, jumladan, korrelyatsiya va regressiya, ekstrapolyatsiya, iqtisodiy indekslar, vaqt qatorlari, variatsiya ko'rsatkichlari, statistik jadval va grafiklar, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xizmatlar sohasini samarali va barqaror rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish, sohaning rivojlanish tendensiyalarini statistik tadqiq etish jarayonida foydalanish uchun tasniflash mezonlari va xususiyatlari hamda xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash jarayonlariga kompleks integral ko'rsatkichlar modelini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

xizmatlar sohasi ishlab chiqarish hajmi, bandlar, asosiy fondlari, uy xo'jaliklari xarajatlari, AKT xizmatlarining ulushi orqali ifodalanuvchi xizmatlar sohasining makroiqtisodiy transformatsiya ko'rsatkichlarini qo'llash orqali milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini kompleks tahlil qilish samaradorligini ta'minlash asoslangan;

milliy iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli vaziyatlarda xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi moliyaviy-iqtisodiy omillarning ta'sirini baholashda asosiy vositalarning eskirishi ($KI=a1<-1$), kadrlar almashinuvi ($T=a2<-1$), innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar ($In=a3>1$), raqamli iqtisodiyot ulushi ($RI=a4>1$), inflyatsiya darajasi (deflyator) ($D=a5\rightarrow 0$), kreditlar foiz stavkasi ($S=-1<a6<0$), milliy valyutaning o'rtacha yillik qiymati ($K=a7\rightarrow 0$) bo'yicha elastiklik koeffitsiyentini o'zgartirishning eng maqbul diapazoni asoslangan;

O'zbekistonda xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini vaqt qatorlaridan foydalanib iqtisodiy-statistik tahlil qilishning avtoregressiya integratsiyalashgan modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishda, sohaning rivojlanish tendensiyalarini statistik tadqiq etish jarayonida foydalanish uchun taklif etilgan tasniflash mezonlari va xususiyatlari hamda xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash uchun kompleks integral ko'rsatkich modeli ishlab chiqilgan;

asosiy indikatorlar sifatida ishlab chiqilgan to'rtta integral indikator, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotga ta'sirining umumiy ko'rsatkichi, xizmatlar

sohasining ishlab chiqarish salohiyati ko'rsatkichi, xizmatlar sohasida bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi ko'rsatkichi va xizmatlar sohasining makroiqtisodiy transformatsiya ko'rsatkichlarni shakllantirish metodikasi yordamida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati, roli va o'rnini kompleks tahlil imkoni yaratilgan;

xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi moliyaviy-iqtisodiy omillarning ta'sirini statistik baholash bo'yicha ishlab chiqilgan model yordamida tahlillar sifatini oshirish hamda sohani rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish jarayonida barcha omillarni inobatga olgan holda, puxta o'ylangan, to'g'ri qarorlar qabul qilish imkoni yaratilgan;

xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini iqtisodiy-statistik tahlil qilishda STATA amaliy dasturiy paketi yordamida, vaqt qatorlaridan foydalanib, ARIMA-Boks-Djenkins usuli asosida prognozlashni amalga oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlariga asoslangan yondashuvlar, makroiqtisodiy, matematik statistika va ekonometrika usullarini qo'llash orqali olingan tahlillar asosida ishlab chiqilgan ilmiy-taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif, amaliy tavsiyalardan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va xizmatlar sohasining ta'sirini statistik baholash va iqtisodiy o'sishni prognoz qilish bo'yicha ilmiy apparatni boyitish hamda makroiqtisodiy, shu jumladan, xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda boshqa davlat boshqaruv organlari tomonidan makroiqtisodiy tahlillarni amalga oshirish, prognozlash va maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda tahliliy tavsiyalarni tayyorlashda, shuningdek, ilmiy yangiliklar va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalari va Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida "Makroiqtisodiyot", "Ekonometrika", "Statistika asoslari", "Iqtisodiy-statistik tahlil va ekonometrik modellashtirish" o'quv kurslari uchun ilmiy-amaliy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmatlar sohasining ta'sirini tadqiq etish va prognozlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini xizmatlar sohasini samarali va barqaror rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish, sohaning rivojlanish tendensiyalarini statistik tadqiq etish jarayonida foydalanish uchun tasniflash mezonlari va xususiyatlari hamda xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash jarayonlariga kompleks integral ko'rsatkichlar modelini tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari

talabalari uchun tavsiya etilgan (Tashkent International University direktorining 2024-yil 18-avgustdagi 01/187-2-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash jarayonlariga kompleks integral ko'rsatkichlar modelini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan "xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasi" tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

xizmatlar sohasi ishlab chiqarish hajmi, bandlar, asosiy fondlari, uy xo'jaliklari xarajatlari, AKT xizmatlarining ulushi orqali ifodalanuvchi xizmatlar sohasining makroiqtisodiy transformatsiya ko'rsatkichlarini qo'llash orqali milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini kompleks tahlil qilish samaradorligini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 08/52-1-15626-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 4-iyuldagi 1/3-14-16/2-48-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi taklif etilayotgan yondashuv xizmatlarning turlari kesimida hisobot davrining taqqoslama narxlardagi hajmini hisoblash va natijada xizmatlar sohasining real rivojlanish darajasini baholash, shu bilan birga, tahlil maqsadidan kelib chiqqan holda, xizmatlarning alohida turlarining rivojlanish holatini ham tahlil qilish bo'yicha mavjud uslubiyot va amaliyotni takomillashtirishga xizmat qilgan;

milliy iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan inqirozli vaziyatlarda xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi moliyaviy-iqtisodiy omillarning ta'sirini baholashda asosiy vositalarning eskirishi ($KI=a1<-1$), kadrlar almashinuvi ($T=a2<-1$), innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar ($In=a3>1$), raqamli iqtisodiyot ulushi ($RI=a4>1$), inflyatsiya darajasi (deflyator) ($D=a5\rightarrow 0$), kreditlar foiz stavkasi ($S=-1<a6<0$), milliy valyutaning o'rtacha yillik qiymati ($K=a7\rightarrow 0$) bo'yicha elastiklik koeffitsiyentini o'zgartirishning eng maqbul diapazoni asoslash taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 08/52-1-15626-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 4-iyuldagi 1/3-14-16/2-48-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini iqtisodiy-statistik baholashning uslubiy asoslari takomillashtirilgan, tahlillar sifati oshirilib, sohani rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish jarayonida barcha omillarni inobatga olishga erishilgan;

O'zbekistonda xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlar va rivojlanish tendensiyalarini vaqt qatorlaridan foydalanib iqtisodiy-statistik tahlil qilishning avtoregressiya integratsiyalashgan modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tahlillarda foydalanish uchun amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 08/52-1-15626-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi mavjud

rivojlanish tendensiyalarini sifatli baholash va istiqbolda erishilishi ko'zda tutiladigan maqsadli ko'rsatkichlarni belgilab olish hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda keng qo'llash imkoniyatini oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta milliy va 3 ta xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalarga taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusiga doir jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola (shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida 6 ta maqola va ma'ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.